

## TA'LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGINING O'RNI

**Bekniyozova Gulchiroy Ro'ziniyozovna**

*Qorako'l tuman 9-maktab psixologi*

**Shoyiqulova To'ygul Hamroyevna**

*Qorako'l tuman 5-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktab amaliyotchi psixologlarining maktab ta'lif-tarbiya tizimidagi ahamiyati, mavqeい, ularning ish faoliyatida yuzaga kelayotgan muammo, kamchilik va yutuqlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** psixologik xizmat, psixoprofilaktika, diagnostika, tashxis hamda psixokorreksiya, psixologik maslahat, kasb-hunarga yo'naltirish, psixologik ma'rifat va tashviqot ishlari, xulq-atvor.

**Abstract:** This article discusses the importance and position of school psychologists in the school education system, the problems, shortcomings and achievements that arise in their work.

**Keywords:** psychological service, psychoprophylaxis, diagnostics, diagnosis and psychocorrection, psychological counseling, vocational guidance, psychological education and propaganda, behavior.

**Аннотация:** В статье рассматриваются значение и место школьных психологов в системе школьного образования, проблемы, недостатки и достижения, возникающие в их работе.

**Ключевые слова:** психологическая служба, психопрофилактика, диагностика, диагностика и психокоррекция, психологическое консультирование, профориентация, психологическое просвещение и пропаганда, поведение.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim sifatini yanada rivojlantirishda maktab amaliyotchi psixologlari o’rni yanada oshib bormoqda. Jamiyatimizda turli yosh va qatlam shaxslarda muommolar ortib borishi oqibatida har tomonlama yetuk, sog‘gom yosh avlodni tarbiyalash ishlarini yanada rivojlantirishda umumta’lim maktablari psixologlarining o’rni beqiyosdir. Bunda psixolog faoliyatini, ish samaradorligini yanada oshirish uchun ular faoliyatida yetarli shart-sharoitlar, texnalogiyalar, moddiy-texnik bazalar yaratish orqali jiddiy e’tibor berish turli muommolarni bartaraf etishda ko‘makchidir. Ushbu maqolada umumta’lim maktablari amaliyotchi psixologlari faoliyati sohalari, samarali usullari to‘g‘risida fikr yuritiladi, shuningdek psixologlar faoliyatini yanada takomillashtirish masalalar muhokama qilingan Mamlakatimizda uzuksiz ta’lim tizimini isloq qilish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”dagi vazifalarni bochqichmabosqich hayotga tadbiq etish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy tarkibiy qismlari bo‘lgan-shaxs, davlat va jamiyat, uzuksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarishga yo‘naltirilganligi ta’limning kelajakdagi asosiy maqsadlarini belgilab berdi. Shuningdek, ta’limni inson uchun xizmat qilishi, bu boradagi islohotlar asosan 10 tayanch tamoyili (ta’limni demokratlashuvi, ta’limni ustuvorligi, ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, ta’limning milliy yo‘naltirilganligi, ta’limning insonparvarligi, ta’limning ijtimoiylashuvi, ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv, iste’dodli yoshlarni aniqlash, ta’limning uzuksizligi va izchilligi, ta’lim tizimining dunyoviy xarakterga ega ekanligi) hayotga tadbiq etilayotganligini ko‘rish mumkin. Jumladan yoshlarni mamlakatimizda yaratilgan ilmiy-texnikaviy imkoniyatlardan kengroq foydalanish huquqi kafolatlangan. Shu narsani alohida ta’kidlash lozimki, keyingi yillarda ta’lim sohasida ta’limni sifatini ta’minlashda, xususan ta’limni boshqarish sohasida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Kadrlar tayyorlash tizimida ta’lim tizimini rivojlantirishning yo‘nalishlaridan biri – o‘quvchilar shaxsini, shaxsiy fazilatlari, qiziqishlari va xulq-atvorini puxta o‘rgangan holda ularga pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bugungi kunda bu borada ta’lim-tarbiya muassasalarining amaliyotchi psixologlari va pedagoglariga dolzarb vazifalar qo‘yilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol shaxs qilib voyaga yetkazish, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi pog‘onaga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018- yil 14- avgustdagи PQ-3907-son qarori ijrosini ta’minalash, shuningdek, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus davlat ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida olg‘a surilayotgan qator g‘oyalar amaliy psixologiyaning yuksalishiga keng imkoniyatdir. Shu imkoniyatlar tizimini o‘rganish va tadqiq qilish bugungi amaliyotchi psixologlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, hozirgi kunda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12- iyuldagи 577- son qaroriga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimida psixologik xizmat, xalq ta’limi tizimida ishlaydigan psixologlarning malakasini oshirish va ularning attestatsiyasi haqidagi “Nizom”ning ishlab chiqilishi va uni mакtabgacha va mакtab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanishi O‘zbekistondagi psixologik xizmat tizimining rasmiy tarzda “jonlanishi” va taraqqiy etib borishi uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Tabiyki, ushbu “Nizom” ta’lim muassasalarida tadbiq etilayotgan psixologik xizmat tizimining asl maqsadi, mazmuni, mohiyati, ahamyati, vazifalari va asosiy yo‘nalishlari haqida tasavvur hosil qilish va shu tasavvur asosida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish uchun o‘ziga xos qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Psixologik xizmat maktablarda ayniqsa o‘quv tarbiya ishining mahsulorligini oshirishga, ijodiy faol shaxsni shakllantirishga imkon beradi. Psixologik xizmat uch asosiy bo‘g‘indan tuzilgan:

- 1) Aniq o‘quv muammosida ishlaydigan bolalar amaliy psixologi,
- 2) Tuman xalq ta’limi qoshidagi tashhis markazi.
- 3) Respublika kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi.

O‘zbekiston ta’lim muassasalarida psixologik xizmat quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Psixologik tashviqot;
2. Psixologik profilaktika;
3. Psixologik maslahat;

O‘rta maxsus ta’lim muassasalarda psixologlar ishining samaradorligini oshirish uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

1. Psixologik xizmatning ko‘paytirilishi: Maktablarda psixolog kadrlarning ko‘paytirilishi muhimdir. Bu, o‘quvchilarga ko‘maklashuvchi ko‘plab psixologik xizmatlarni taqdim etishga imkon beradi. Psixologlar, har bir o‘quvchilarning psixologik muammolarini tahlil qilish, ularga kerakli yordam va ko‘maklarni ko‘rsatishlariga, o‘quvchilarni yaxshi tushunish va qo‘llab-quvvatlash imkonini yaratishga xizmat qiladi.

2. O‘quvchilarning psixologik holatini baholash: O‘quvchilarning psixologik holatini baholashning vaqtida aniqlanishi juda muhimdir. Bu, o‘quvchilarning psixologik muammolari va zararli o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Baholash jarayonida anketalar, muloqotlar, o‘quvchi va ota-onan izlanishlaridan foydalanish mumkin.

3. Ko‘maklashish va maslahatlar: Psixologlar o‘quvchilarga ko‘maklashish va maslahatlar taqdim etishda katta ahamiyatga ega. Ularga o‘quvchi va ota-onan bilan muloqotlar, shaxsiy ko‘maklashuv va maslahatlar orqali o‘quvchilarga yordam berishadi. Bu, o‘quvchilarning psixologik muammolari, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatlari haqida maslahat oladigan imkoniyat yaratadi.

4. Ko‘p tahlil va monitoring: Psixologik xizmatning samaradorligini oshirish uchun ko‘p tahlil va monitoring jarayonlarini o‘rnatish muhimdir. Bu, o‘quvchilarning psixologik holatini tahlil qilish, o‘zgarishlarni kuzatish va takrorlangan baholarni o‘z ichiga oladi. Bu ma'lumotlar asosida, psixologik xizmatning samaradorligi o‘rganiladi va kerakli o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun qo‘llaniladi.

5. O‘qituvchilar va o‘quvchilarning bilimini oshirish: Psixologik xizmatning samaradorligini oshirishda o‘qituvchilar va o‘quvchilarning bilimini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar, psixologik xizmatning samaradorligi uchun

zarur bilim va tushunchalarga ega bo‘lishi kerak. O‘quvchilarga esa o‘zlarining psixologik holatini tushunish va o‘zlarini boshqarishga o‘rganish imkoniyati berish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda psixologik xizmat samaradorligini oshirish uchun bu usullar va yo‘llar ishlatalishi tavsiya etiladi. Bu, psixologik xizmatlarning o‘quvchilarga ko‘maklashish, o‘quvchilarning psixologik muammolarini tahlil qilish va maslahatlar taqdim etish, monitoring va tahlil jarayonlarini o‘rnatish hamda o‘qituvchilar va o‘quvchilarning bilimini oshirish imkoniyatlarini qo‘llashga imkon beradi. Bunda barcha har tomonlama hamkorlik va tashkilotning qo‘sishimcha resurslarni taqdim etishi muhimdir.

B.R.Qodirovning O‘zbekistondagi iqtidorli va iste’dodli bolalarni tanlash va tarbiyalashga qaratilgan qator nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy asarlari shular jumlasidandir Turli sohalarda faoliyat yuritar ekanmiz, albatta, kasbiy sifatlar psixologning kasbiy jarayonini to‘ldirib turuvchi muhim jabha hisoblanadi. Bugungi kunda maktab amaliyotchi psixologlari o‘quvchi faoliyatidagi ijtimoiy-psixologik muhofazani takomillashtirish bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari zarur:

- har bir sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitning har bir o‘quvchi shaxsiga ijobiy ta’sirini tarkib toptirish, hamda har bir o‘quvchining o‘quv faoliyatiga nisbatan o‘z-o‘ziga adekvat baho bera olishini ta’minlash;

- har bir o‘quvchining o‘z-o‘zini bilishi, anglash, idora qilish va o‘z-o‘zidan ijtimoiy ma’noda muvaffaqiyatli qoniqish hosil qilishi uchun shart-sharoitlarni hozirlash, shuningdek, har qanday o‘quv faoliyati talablarini bajarish jarayonida o‘quvchining meyoriy-hissiy holat chegarasidan chiqib ketmasligi uchun barcha tadbirlarni qo‘llash;

- o‘quvchining faoliyat talablariga va aksincha, faoliyat talablarining o‘quvchi shaxsiga moslasha olishlarini ta’minlash va o‘quvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘qituvchi, o‘quvchi-jamoa o‘rtasidagi hamkorlik faoliyati uchun muhim muvaffaqiyatli munosabatlar o‘rnatila borishni muntazam nazorat ostiga olish;

- o‘quv faoliyati talablarini muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlashga xizmat qiluvchi o‘quvchi shaxsi faolligi bilan bog‘liq individual uslub imkoniyatlarini o‘rganish va qaror toptira borish, hamda har bir o‘quvchini maktabga qabul qilishda u yoki bu fan bo‘yicha chuqur o‘zlashtiruvchi sinflarga jalg etish orqali kasb tanlashga yo‘llashda tegishli ilmiy amaliy tavsiyalar berib borish;
- umumiyl psixologik xizmat Nizomi asosida psixoprofilaktik, psixodiagnostik va psixokorreksion ishlarni tizimli ravishda amalga oshirish.

Maktab amaliyotchi psixologlari faliyati muayyan talab asosida ishlab chiqilgan tegishli yo‘l-yo‘riqlar, ko‘rsatmalar va ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida tashkil etiladi.

- Muassasalarda tarbiyalash va o‘qitish jarayonida ruhiy, jismoniy (somatik) va ijtimoiy farovonligini muhofaza qilish;
- O‘quvchilar rivojlanishiga to‘sinqlik qilayotgan omillarni aniqlash va turli ko‘rinishdagi psixologik yordam berish;
- Turli yo‘nalish va maqsadlarda psixologik tashxis o‘tkazish;
- Bola ruhiyatidagi salbiy o‘zgarishlarni aniqlash va ularni bartaraf etish;
- Turli yosh davrlarida o‘quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, psixologik nuqsonlarni aniqlash va salbiy og’ishlarning oldini olish;

O‘quvchilar shaxsining individual yosh xususiyatlari, jinsini hisobga olib ta’lim faoliyatining rivojlantiruvchi va tuzatuvchi dasturlarini rejalashtirish va ishlab chiqishda ishtiroy etish, ularda hayotiy va kasbga yo‘nalish olishning turli vaziyatlariga moslashuvchanlikka tayyorgarlikni rivojlantirishga ko‘maklashish hamda iqtidorli o‘quvchilarni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilar, pedagogik jamoa, ota-onalarning (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) psixologik va jinsiy tarbiya madaniyatini shakllantirish, pedagogik jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta’minlashdan iboratdir. Umumta’lim maktablari amaliyotchi

psixologlari yanada tizimli, muvofiq amalga oshirishlari uchun inspektor-psixologlar bilan o‘zaro hamkorlikdagi xizmat faoliyati yuqorida qayd etilgan maqsad va vazifalar amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi va ko‘zlangan maqsadga erishishni rivojlantiradi. Xizmat o‘tash joyi – umumiy o‘rta ta’lim muassasalari hisoblanadi. Bunda maktab amaliyatchi psixologlari bilan hamkorlikdagi faoliyat orqali ta’lim muhitidagi salbiy holatlarni psixologik profilaktika va psixologik korreksiya ishlarini amalga oshiradi. Inspektor-psixolog vazifalariga har bir o‘quvchi kesimida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida psixologik muhitni yaxshilash, voyaga yetmaganlar orasida qonun buzilishlarga murosasiz munosabatda bo‘lish hissini shakllantirish, muammoli o‘quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli faoliyatini amalga oshirish. Umumtalim maktabi amaliyatchi psixologi va Inspektor-psixolog vazifalari Psixologik korreksiya va profilaktika yo‘nalishida o‘zaro hamkorlikda ishlash orqali o‘quvchilar xulq-atvoridagi salbiy holatlarni oldini olish ishlari amalga oshiriladi, bu kabi ishlar o‘quvchi yoshlar ruhiyatida, manaviy olamidagi buzilishlarni o‘z vaqtida psixologik profilaktrika qiladi.

Xulosa qilib shuni aytadigan bo‘lsak, amaliyatchi psixologlar o‘z xizmat faoliyatini quyidagi yo‘nalishlar orqali amalga oshirib samarali natijalarga erishishadi:

- Psixologik ma’rifat va tashviqot;
- Psixologik-pedagogik tashxis;
- Psixologik profilaktika;
- Psixologik korreksiya;
- Psixologik maslahat;
- Kasb-hunarga yo‘naltirish.

Umumta’lim maktablari psixologlarining ushbu asosiy yo‘nalishlari psixologik xizmat faoliyatining mahsuldorligini ta’minlab, ta’lim sifatini yanada rivojlantirishi, o‘quvchilar layoqat-qobiliyatini yanada takomillashtirishi, mакtab jamoasi ijtimoiy-psixologik muhitini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Bu kabi yo‘nalishlar faoliyatini yanada

samarali olib borish uchun umumta’lim maktablari amaliyotchi psixologlariga qulay shart-sharoit, o‘z vazifalarini samarali amalga oshirishlari uchun maxsus zamon talablariga javob beradigan mashg‘ulot xonalari bo‘lishi maqsadga muvofiq. Shundagina psixologik xizmat maqsad va vazifalari o‘z natijasini ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishida, jamiyatga o‘quvchi shaxsini komil shaxs qilib yetkazishni yanada takomillashtirishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi sobiq Prezidentining «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018- yil 14-avgustdagи PQ-3907-son qarori
2. Алёшина Ю. Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование. — 2-э изд. — М. : Независимая фирма “Класс”, 2000. — 208 с.
3. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat. -T.: TDPU, 2006. - 162 b
4. Barotov Sh.R. Ta'limda psixologik xizmat. – Buxoro, 2007.
5. Olimov L.YA., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va coping xulq-atvor namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.